

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Qishloq xo‘jaligi va atrof-muhitni muhofaza qilish” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Ko‘k limon o‘simliklarining Bergamot, Birs va Tailaym navlarini <i>in vitro</i> sharoitida nihollarini ko‘paytirish va yetishtirish agrotekhnologiyasini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - Xorijdan introduksiya qilingan limonning Bergamot, Birs va Tailaym navlari tanlab olinadi; - limonning ko‘k Bergamot, Birs va Tailaym navlarini <i>in vitro</i> sharoitida virussiz, genetik jihatdan bir xil ko‘paytirish va o‘simliklar o‘sishi uchun ozuqa muhitlar tarkibini ishlab chiqiladi; - <i>in vitro</i> laboratoriyasi sharoitida mikroklonal mikroko‘paytirish texnologiyasi ishlab chiqiladi; - himoyalangan joylarda limonning qalamchalariga fitoregulyatorlar bilan ishlov berish orqali yashil novdalaridan ko‘chat yetishtirish texnologiyasi ishlab chiqiladi; - yetishtirilgan ko‘chatlarni laboratoriya va issiqxona sharoitida ildiz hosil qilgan nihollarni adaptatsiya qilish hamda ularni o‘stirish bo‘yicha ilmiy ishlari olib boriladi; - yetishtirilgan ko‘k limon ko‘chatlarini mahalliy xonadonlar va fermer xo‘jaliklari uchun ishlab chiqarish, realizatsiya qilish imkoniyatlari yaratiladi; Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Tadqiqot natijalari Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizim tashkilotlarida sinovlardan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Qishloq xo‘jaligi vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda, jumladan <i>Scopus / Web of Science</i> ma‘lumotlar bazasida indekslanadigan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Qishloq xo‘jaligi vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.